

Biznesda kreativ fikrlash

Lutfullaeva Nigora

Xalqaro Nordik universiteti

Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, p.f.n.

E-mail: lutfullaeva.nigoraxon@gmail.com

Tel: (90) 962-61-00

Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli – harakatga keltiruvchi kuchi bu kreativlik. Atrofga boqsangiz har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchakli tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish. Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiylik kasb etayotgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgani, aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan.

Har bir sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Olim, muhandis, professor-o'qituvchi, shoir, yozuvchi, rassom, aktyor, me'mor, muharrir, dizaynerlargina emas, hatto bajaruvchilikka asoslangan kichik mutaxassislariga ham ijodkorlik zarurati seziladi. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqarish kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi.

Xo'sh, ixtiro, kashfiyotlar amalga oshirish uchun qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim?

Kreativlik atamasiga ilk bora 1922 yilda *D.Simpson* tafakkurning nostandart usuli, deb ta'rif bergan. Kreativlikni o'rganish bo'yicha Rossiyada *A.M.Matyushkin*, *A.V.Petrovskiy*, *M.G.Yaroshevskiy*, *V.N. Drujinin* kabi olimlar ish olib borganlar. Psixologiyada intellekt va kreativlikni aloqasini tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjudligini ta'kidlab utganlar.

D.Veksler, *G.Ayzenk*, *L.Termen*, *R.Stenberg* va boshqalar intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb bilishadi. Intellekt kreativlikning yuqori bosqichidir, ya'ni ijodkorlik intellektning hosilasidir. Gans Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o'ziga xos ko'rinishi deb hisoblagan hamda kreativlik intellektning yuqori bo'lishi bilan belgilangan.

V.Shterni, *J.Piaje*, *D.Veksler* va boshka mualliflar xam intellektni insonlarni yangi xayotiy sharoitlarga moslashashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan.

Kreativlik - bu shaxsning yangi g'oyalarni yaratishi, tafakkurning an'anaviy holatidan chetga chiqib, o'ziga xos, original qarorlar qabul qilishga qodirligidir.

Intellektual qobiliyatlar - bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o'ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o'z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo'lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir¹. Yevropaning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining bayonotiga ko'ra kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora extiyoj sezmoqdalar². Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega³.

Kreativlik - bu insonni xayotga moslashishi emas, balki uni o'zgartirishidir. Kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat, ya'ni idrok qilish, axborot materiallarini ijodiy tayyorlash, ularning turli joylarda ijtimoiylashtirish xodimlar uchun ahamiyatli bo'lib, bu ularning ehtiyojlariga mos keladigan, zarur mehnat faoliyati hisoblandi. Intellekt va kreativlik ko'nikmalari shakllangan yoshlar idrok qilish, ijodiy faollik, shakllangan intellekt, ijodiy potensial, ijtimoiy-kommunikativ faoliyatga intilish, intellektual rivojlanish, takomillashishga intilishning kuchliligi bilan ajralib turadi. Ularda nafaqat ijodiy-intellektual, balki muloqot qilish, ijtimoiy faoliyatga intilish, o'z bilimlari bilan o'rtoqlashish kabi kommunikativ qobiliyatlar ham shakllanadi. Chunki bu qobiliyat egalarida oldindan sezish,

¹ Умиджон Абдусаттор ўғли Турдикулов. Scientific journal impact factor (sjif) 2020: 4.804 Интеллект ва креативликнинг ўзаро алоқаси. Academic research in educational sciences volume 1 | issue 4 | 2020 ISSN: 2181-1385

² OECD (2010), The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow, OECD.

³ 3. OECD (2017), PISA 2021 Creative Thinking Strategic Advisory Group Report, Organisation for Economic Co-Operation and Development, <https://one.oecd.org/document/EDU/PISA/GB> (2017V19/en/pdf (accessed on 26March 2018).

rejalashtirish, mas'uliyat, qat'iyat, o'z-o'zini boshqarish, nazorat qilish kabi emotsional, intellektual va irodaviy xususiyatlar faollashadi. Zarur shart-sharoitlar ta'minlanganida, unda "o'z-o'zini baholash, individualligi va betakrorligi"ni ko'rish mumkin. Demak, kreativlikning tarkib topishi, estetik did, ma'naviy-axloqiy dunyoqarash; ijtimoiy faollikka ehtiyoj; turli tadbirlarda faol ishtirok etish; e'tirof etilish va ma'qullanishga ehtiyojning kuchayishi kuzatiladi.

Intellekt (*lot. Intellectus - tushunish, aql*) - aql, insonning fikrlash qobiliyati bo'lib, "anglash, tushunish" degan ma'nolarda keladi. Tushunib yetish aqliy qobiliyatning mustahkam tuzilmasi hisoblanadi. Intellektni aqliy jarayonlar tizimi, muammolarni yechishning uslubi va strategiyasi, idrok qilish faolligini talab qiladigan vaziyatga individual yondashuvning samaradorligi ya'ni, kognitiv uslub orqali tasavvur qilish mumkin. Bu aqliy jarayonlar, muammolar, turli masalalar va vaziyatlarni individual, samarali idrok qilish yo'li bilan faol hal qilish, ijodiy topshiriqlar va umuman "ijtimoiy-madaniy hayotga samarali qo'shilish, muvaffaqiyatli moslashish qobiliyatidir".

Intellektning bazaviy strukturalari quyidagilarga bog'liq:

- insonning emotsional-irodaviy xususiyatlari;
- amaliy va nazariy o'zaro munosabatlar qobiliyati;
- uning hayotiy sharoitlari va hokazo.

Intellektning mazmuni individning tegishli ijtimoiy muhim faolligi, muhiti (o'qish, ishlab chiqarish va boshqalar) ga bog'liq bo'lib, intellektual faoliyat - aqliy masala, vazifa va muammolarni yechish jarayonidir. Uning predmetli mazmunida emotsional tarkibiy qismlarning bo'lishi shart. Intellekt - tafakkur - tushunish, tushunib yetish - aqliy qobiliyatlar, "idrok qilish faoliyati jarayoni", tushunish, mulohaza qilish, aqliy xulosa chiqarish yordamida idrok qilish idrok jarayonining tarkibiy qismlari bo'lib, u shaxsdan "tushunish va fikrlash qobiliyati" ni talab etadi.

Ma'lumki, intellekt va kreativlikning bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan jihatlari ham mavjud. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya'ni uni atrof olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaralgan nazariyalar ham mavjud. Ba'zi olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonlardan yolg'izlanish deya ta'rif berishgan. Aynan real olamga nisbatan dezadaptatsiyasi mavjud bo'lgan, ya'ni moslasha olmagan inson o'zidagi yolg'izlikni yengib o'tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishga intiladi. *Alfred Adl*ning insondagi kreativlik o'zida mavjud bo'lgan noto'liqlik majmuini to'ldirish vositasi deya berilgan tavsifi ham aynan kreativlikning noodatiy ko'rinishini namoyon qilish deb e'tirof

etish mumkin. Empirik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, ijodkor qobiliyat egalari shaxsiy va emotsional sohada jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tadqiqotlarda bu qobiliyat egalarining ta'lim muassasalarida erishayotgan natijalari ularning imkoniyatlaridan past ko'rsatkichda ekanligini ko'rish mumkin.

Kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo'ygan olimlardan yana biri *Dj. Gilvord* bo'lib, u o'z nazariyasini ikki xil tafakkur asosida, ya'ni, konvergent va divergent tafakkur asosida ko'radi. Konvergent tafakkur masalani yechishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Divergent tafakkur - masalani yechishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turidir. Divergent tafakkur - kreativlik asosida quriladi. Demak intellekt va kreativlik umumiy ko'rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo'lib, ularni ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog'lash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi tuzilmasini yaratishga javob beradi. Intellekt esa o'sha ma'lumotni real amaliyotda qo'llashga va atrof-muhitga moslashishga javob beradi.

Uchinchi nuqtai nazar egalari ham mavjudki, ular intellekt va kreativlik o'zaro uzviy bog'langan ikki xil omil ekanligini asoslab ko'rsatishga harakat qilishgan. Shaxsni markazlashtirigan bu psixologiya vakillari *A.Maslou* va boshqalar ijodiy qobiliyatni tan olishmagan. Ijodiy faollik shaxsda qobiliyatga qaraganda, ba'zi shaxsiy xususiyatlarni (qiziqish, tavakkalchilik) shakllantiradi. Lekin bu faollikning namoyon bo'lishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual qobiliyat mavjud bo'lishi kerak. Ularning fikricha, quyi intellektga ega bo'lgan kishi hech qanday kreativlikka ega bo'lmaydi. O'rta intellekt sohiblari o'rtacha kreativlik, IQ koeffitsenti 120 dan ortiq bo'lgan kishilar a'lo darajadagi kreativlikka ega bo'ladi.

X.Gardner intellektni bir necha qobiliyatlar yig'indisi deb qaragan. U o'z tadqiqotlarini past qobiliyatli odamlarda o'tkazgan. Miyaning shikastlanishi bir qobiliyatni so'ndirishi mumkin, lekin qolgan qobiliyatlarga zarar bermaydi deb hisoblagan. *X.Gardner* o'z tadqiqotini bosh miyasi ba'zi qismlari fiziologik jihatdan shikastlangan insonlarda o'tkazgan. Ular ko'pincha intellekt testlaridan quyi ballarni egallashgan. Bu sindrom vakillarining ba'zilarida nutq rivojlanmagan. Lekin qo'shib ayirishni xuddi elektron hisoblagichday tezda hisoblay olish qobiliyatiga ega bo'lishgan. Ba'zilari, biror tarixiy kun bilan bog'liq sanalarni yoddan bilishgan. Bunday sindrom egalari hattoki badiiy ijodda ham muvaffaqiyatlarga erisha olishgan. Yuqoridagi asoslardan foydalanib, Gardner shaxsda intellekt emas, balki bir necha xil ong mavjud degan fikrga kelgan. Umuman olganda shaxsda 8 xil

ko‘rinishdagi qobiliyat borligini aytib o‘tadi. Agar shaxs biror sohada muvaffaqiyatga erishsa, demak u qolgan sohalarda xam yaxshi natijalarga erishadi deya ta‘kidlagan.

Mustaqil fikrlashning yuqori shakli bo‘lmish ijodiylik muammosi chet el psixologiyasida juda chuqur o‘rganilgan, bu asosan qobiliyatning kreativligi tarzida talqin qilingan. Bu ta‘rifdan “ijodiy” deb foydalanmaslikning sababi (“create” - inglizcha “ijod qilish” demakdir), ijodiylik - bu intellektual faollikning yuksak bosqichi, degan tasavvur paydo bo‘lmasligi uchun “kreativlik” atamasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Psixologiyada kreativlik muammosi 1950 yillardan boshlab izchil ravishda o‘rganilmoqda. Lekin “kreativlik” atamasini o‘zbek tilida shartli ravishda “aqliy ijodiylik” deb atash ham o‘rinli va uni mustaqil fikrlashning psixologik asosi sifatida o‘rganish lozim.

Shunday qilib, aqliy ijodiylik haqida mulohaza yuritilganda fikrlashning nostandartligi, uning mustaqilligi va “kreativligi” nazarda tutiladi. Kreativlikning ajratilishiga aqlning an‘anaviy testlari va muammoni yechishning muvaffaqiyati o‘rtasida bog‘lanish yo‘qligi haqidagi ma‘lumot turtki bo‘lgan. Bu sifat mohiyatan aql orqali berilgan ma‘lumotlarni, qo‘yilgan vazifalarni hal qilishda tezkor usul va xar xil yo‘sindan foydalanish qobiliyatiga bog‘liqligini ifodalaydi.

XX asrning 60-yillariga kelib, ijodiylikning 60 dan ortiq ta‘rifi ishlab chiqildi. Ijodiylik ta‘riflarini tahlil qilish orqali ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- geshtaltik ta‘rif (ijodiy jarayonni mavjud geshtaltlarni buzib, yaxshiroq‘ini tuzish sifatida ta‘riflanadi);

- innovatsion (yangi) ta‘rif (so‘nggi natijaning yangiligi bo‘yicha ijodiylikni baholashga yo‘naltirilgan);

- estetik yoki ekspressiv (ijod qiluvchining o‘zini-o‘zi ifodalashga ahamiyat beruvchi);

- psixoanalitik (ijodiylikni “U”, “Men” va “Ideal – Men” o‘rtasidagi o‘zaro munosabat deb ta‘riflovchi);

- muammoli (ijodiylikni masalalar yechish jarayoni deb aniqlaydigan, bunga *J.P.Gilford*ning “Ijodiylik - divergent qobiliyat jarayonidir”, degan ta‘rifini xam mujassamlashtirish mumkin);

yuqorida ta‘riflangan tiplarning birortasiga ham kirmaydigan xar xil ta‘riflarni kiritish mumkin (masalan, “umuminsoniy bilimlar zaxirasini to‘ldirish) va hokazo.

Sternberg va uning kasbdoshlari kreativlikning 5 ta komponentini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lgan.

1. Shaxsdagi bilimning ko‘p qirraligi. Qo‘lga kiritilgan bilimlar g‘oyalari ko‘p bo‘lishining asosi hisoblandi. Dunyoviy bilimlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ruhiyatdagi bilimlar ham shunchalik ko‘p bo‘ladi. Hayotda muammolarni hal qilishda bilimlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, uni hal qilish shunchalik oson bo‘ladi.

2. Tasavvuriy tafakkur narsa va hodisalarini yangidan qurishga, ularni qayta yaratishga va bog‘lashga imkon beradi. Muammoning asosiy elementini tasavvur qilib, uni o‘zlashtirish va uni yangi bosqichga olib o‘tish zarur.

3. Tavakkalchilik - yangi taassurotlarni qidirish. Buni ikki ma‘noda, tavakkal va muammoni yengib o‘tishdagi qat‘iylikda deb ko‘rish mumkin. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan shaxslar orqaga qaytishdan ko‘ra, yangi tajribaga ega bo‘lishni afzal deb bilishadi.

4. Ichki motivatsiya majburlikdan ko‘ra shaxsda murakkab masalani yechishda qiziqish va qoniqish hissini yuzaga keltiradi. Ijodkor shaxs masalaning muddatini, uning keltiruvchi daromadini va talabgorlari haqida o‘ylamaydi. U butun e‘tiborini masalani yechishdagi qoniqish hissi va stimuliga qaratadi.

5. Ijodiy muhit shaxsdagi ijodiy g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Hamkasblar bilan ijobiy munosabat va ularni ko‘magi shaxsdagi g‘oyalarni kamol topishiga turtki bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ijodiy iqtisodiyot insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichi sifatida qabul qilinmoqda. Iqtisodiyotning bu sektori ancha vaqt oldin paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, uning bozori hali to‘liq shakllanib ulgurmagan. “Kreativ iqtisodiyot” bugun shu qadar ustuvor yo‘nalishga aylandi, hattoki BMT 2021 yilni Barqaror rivojlanish uchun Xalqaro ijodiy iqtisodiyot yili deb e‘lon qildi. Influencer Marketing Hub ma‘lumotlariga ko‘ra, ijodiy iqtisodiyotning global bozori 2024 yilga borib 1 trln dollarga yetadi. Shuningdek, uning barqarorlashishi rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti hajmining o‘shishiga katta hissa qo‘shib, jahon iqtisodiyotida (10-25%) yuqori o‘shish sur‘atlarini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotchilar kelgusida kreativ iqtisodiyotning jadal rivojlanish sur‘atlari tufayli taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o‘rtasidagi tengsizlik muttasil oshib borishini prognoz qilmoqdalar.

“Kreativ iqtisodiyot” nima? Ma‘lumki, iqtisodiyotda to‘rtta yirik sektor mavjud. Birinchisi – qishloq xo‘jaligi, ikkinchisi – ishlab chiqarish, uchinchisi – xizmat ko‘rsatish, to‘rtinchisi – ijodiy (kreativ) iqtisodiyot. Ijodiy iqtisodiyot yoki bilimlar iqtisodiyoti intellektual faoliyat natijasi hisoblangan tovar va xizmatlarni kapitallashtirishga asoslanadi. Kreativ iqtisod sektori boshqa an’anaviy sektorlardan o‘ziga xos yondashuvi bilan farq qiladi⁴.

⁴ <https://globalhalal.uz/blog/izhodij-kreativ-iqtisodiyot-hakida-eshitganmisiz/>

Ijodiy iqtisodiyotning valyutasi, bu – g‘oya. Ijodiy iqtisodiyot har qanday jamiyat uchun universaldir, chunki u hech qanday aniq tabiiy resurslarni, qulay geografik joylashuvni yoki raqobatdosh ustunlikning boshqa tashqi omillarini talab qilmaydi. Buning uchun faqat bilim va iste’dod kerak bo‘ladi xolos. Ijodkorlik va innovatsiyalar dizayn, IT-texnologiyalar, adabiyot, musiqa, kinematografiya, san’at, ommaviy axborot vositalari va reklama sanoati kabi ko‘plab tarmoqlar rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi. Agar siz dunyodagi eng qimmat kompaniyalardan birini, ya’ni Apple ni oladigan bo‘lsangiz, Kaliforniyada bu kompaniya faqat qismlar dizaynni va ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanadi, qurilmalarning yig‘ish jarayoni esa Xitoyda amalga oshiriladi. Shunga qaramay, iPhone ishlab chiqaruvchi Xitoy kompaniyasi keng jamoatchilikka unchalik ma’lum emas va Apple kompaniyasining o‘zidan yuz marta kam daromad oladi. Bu ijodiy iqtisodiyot deb ataladi.

Ijodiy iqtisodiyotning “o‘zagi” – o‘ziga xos g‘oyalar, noyob fikrlash qobiliyatiga ega kontent yaratuvchilardir. Ijodiy soha vositalari – kontent yaratish va tarqatish uchun ilovalar, xizmat turlari va dasturlardir. Ijodiy qatlam – asosiy faoliyati g‘oyalar yaratish va targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan odamlar yoki tur xil kasb vakillari, olimlar, kontent ishlab chiqaruvchilar va yetakchilaridan iborat qatlam. Kreativ biznes – ya’ni startaplar.

Ijodiy iqtisodiyot hujjati – intellektual mulkdir. Innovatsion mahsulot yangi texnologiya bo‘lishi shart emas. Bu hammaga tanish, lekin umuman boshqa kontekstda yangicha talqin qilingan narsa bo‘lishi ham mumkin. Intellektual mulk huquqlari esa ijodkorlar tomonidan yaratilgan tijorat bitimlarining asosini tashkil etadi. Misol uchun, muallif J.K. Rouling o‘zining Garri Potter asarini ekranlashtirilishi, uning asosida video o‘yinlarni yaratilishi, shuningdek, asar qahramonlarining boshqa ko‘ngilochar dasturlarda foydalanilishi uchun maxsus gonorar oladi. Ushbu to‘lovlarning barchasi mualliflik huquqi, savdo belgisi huquqlari va boshqa intellektual mulk huquqlarini himoya qilish kabi qonunlarga rioya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Kreativ iqtisodiyotning uchta asosiy sohasi: • madaniy ifoda (madaniy va ijodiy tushunchalarning badiiy faoliyat orqali namoyish etilishi); • madaniy meros (sayyohlarni jalb qilish vositasi, o‘zaro tinchlikni saqlash va tabiatni asrash usuli); • shaharsozlik va arxitekturadir (shahar hududlarini shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun foydali manzillarga aylantirish).

Ijodiy iqtisodiyot dunyo mamlakatlarida hozirda kreativ iqtisodiyot barqaror iqtisodiy ahvolga ega va fuqarolarining turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda to‘liq mavjud. Misol uchun, Yevropada ijodiy va

madaniy sohalar avtomobilsozlik sanoatiga qaraganda deyarli 2,5 barobar ko'proq ish o'rinlarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Xorijiy ekspertlarning fikricha, bu iqtisodiyot Yevropa yalpi ichki mahsulotining 4,2 foizini tashkil qiladi, uning tarmoqlari esa Yevropada eng ko'p ish o'rinlarini yaratgan sohalar orasida, soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Shuningdek, u inqiroz davrida o'zining barqarorligini yetuk salohiyatga ega bo'lgan yosh mutaxassislarni ish bilan ta'minlab isbotladi va Yevropa iqtisodiyotning asosiy tarmoqlardan biriga aylandi.

Dunyodagi eng mashhur ijodiy iqtisodiyot klasterlari:

- Aqshning New York shtatida joylashgan DUMBO hududida bo'shab qolgan omborlar, eski fabrika va ustaxonalar, san'at galereyasi va tadbirlar o'tkaziladigan studiyalarga aylantirilgan;

- Germaniyada – Spinnery (Leipzigdagi eng yirik paxta yigirish ishlab chiqarish zavodi ham rassomlar, kulollar, zargarlar, modelerlar, me'morlarning yuzlab studiyalari va ijod maskaniga aylantirildi);

- Sloveniyada – “Metelkova shahri” madaniy markazi (Lyublyanadagi Avstriya-Vengriya imperiyasining eski kazarmalarida san'at galereyalari, kinoteatrlar, klublar va dunyodagi eng yaxshi Celica Art xostellaridan biri joylashgan ko'ngilochar maskanga aylantirilgan).

Ijodiy iqtisod ma'lum sharoitlar mavjud bo'lgandagina rivojlanishi mumkin. Bundan esa ijodiy sektorning asosiy e'tibori doim yirik global aglomeratsiyalarga qaratilgan bo'lishi kerakligi tushuniladi. Olimlar, turli xil shaharlarga ijodkor professionallarni uch T nazariyasi, ya'ni (talant, texnologiya va tolerantlik (bag'rikenglik) orqali jalb qilish mumkin degan fikrdalar. Bugungi kunda dunyoning eng qashshoq mamlakatlari iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi va sanoat sektorlari tashkil etsa, rivojlangan va boy sanalgan mamlakatlarda aholining katta qismi asosan xizmat ko'rsatish va ijodiy iqtisodiyot sektorlariga jalb qilingan. O'zbekistonliklarning asosiy qismi ayni paytda qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lgan bir paytda, rivojlangan mamlakatlardagi ko'plab tizimlar va hatto kasblar raqamlashtirilmoqda, avtomatlashtirilmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, yaqin 5 yil ichida dunyoda 800 mln ish o'rni yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi, yaratilishi kutilayotgan bo'sh ish o'rinlari soni esa atigi 300 mlntani tashkil qiladi. Oddiy bir misol, har safar bankomat yoki bankning elektron ilovasidan foydalanish orqali bitta bankirning ishini olish mumkin. “Tesla” o'zi boshqariladigan avtomobillarni ishlab chiqarib ulgurdi. Agar yaqin vaqt ichida shahar ko'chalarida haydovchisiz taksilar yura boshlasa, oddiy haydovchilar qisqa muddatda kamayib ketadi. Chunki bu sohada harajatlarning katta qismini inson mehnati tashkil etadi. Dunyo

o'zgarishga yuz tutsa, turli kasblar yo'qola boshlaydi, ana o'shanda aholining yetarli qismi uchun juda og'ir davr boshlanadi. Bugun jahon mamlakatlarida ijodiy iqtisodiyot rivoji tufayli ijodkorlar, ixtirochilar, innovatsion texnologiyalarni yarata oladigan kishilar hattoki rahbar lavozimini egallaganlardan ko'proq daromad oladilar. Afsuski, bugun aksar iqtidorli o'zbek yoshlari "Rassomchilik ham kasbmi? Yaxshisi bankda ishla yoki ko'proq oylik beradigan ish top va hokazo" degan vajlarni tinglashga odatlandilar. Chunki san'at ko'p asrlar davomida moliyaviy jihatdan foydasiz mashg'ulot, tijorat esa daromadli, hunar deb hisoblangan. Hatto buyuk ijodkorlarga moddiy farovonlik faqat o'limdan keyin nasib etgan. Bunday misollarni ko'rgan iqtidor sohiblari yo shaxsiy rivojlanish uchun orzulariga ergashib ijodiy iqtisodiyoti rivojlangan boshqa mamlakatlarda qo'nim topmoqdlar yoki tirikchilik maqsadida boshqa bir sohadan ketishga majbur bo'lmoqdalar. O'zbekistonning siyosiy-geografik o'rni an'anaviy geosiyosatda Markaziy Osiyoning yuragida joylashganligi sabab O'zbekiston dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Bu mamlakatimiz va boshqa davlatlar o'rtasidagi jismoniy mahsulotlar eksport yoki importi narxini oshiradi. Ijodiy iqtisodiyot esa O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga kirish yo'lidagi yana bir ajoyib imkoniyatidir. Sababi, kreativ iqtisodiyot yordamida odamlar cheksiz miqdordagi raqamli tovarlarni sotishlari mumkin bo'ladi. Kitob yozish, rasm chizish yoki video-suratga olish kabi intellektual mahsulotni ishlab chiqarish, mahsulotni boshqa mamlakatlarga jo'natish uchun muallifdan hech qanday qo'shimcha xarajatlar talab etilmaydi. O'zbekistonda suratga olingan filmni Avstraliyada tomoshabin uyida o'tirgan holda bemalol tomosha qilishi mumkin. Internet orqali har qanday moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishsa bo'ladi. Natijada kontent yaratuvchi ortiqcha xarajatlarga duch kelmaydi.